


29. Sonlarni ayirish (43 – 16)

Yondosh mavzu:
Qandolatchilik

Xona birliklarini xona
birliklariga qo'shish/ayirish.



1. Misollardagi xatolarni toping.
To'g'ri misollarni yeching.

$$\begin{array}{r} 43 \\ + 2 \\ \hline 63 \end{array} \quad \begin{array}{r} 35 \\ - 20 \\ \hline 15 \end{array} \quad \begin{array}{r} 47 \\ - 43 \\ \hline 4 \end{array} \quad \begin{array}{r} 64 \\ - 23 \\ \hline 41 \end{array}$$


2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

$$33 - 18 = (33 - 10) - 8 = 23 - 8 = \\ [10] \quad [8] \qquad \qquad \qquad [3] \quad [5] \\ = (23 - 3) - 5 = 20 - 5 = 15$$

$$\begin{aligned} 56 - 28 \\ 44 - 36 \\ 71 - 25 \\ 82 - 44 \end{aligned}$$

3. Krem uchun mikserga 12 kg sutli qorishma, 6 kg shakar, 2 kg tuxum kukuni va 7 kg sariyog' solindi. 18 kg tayyor krem tort uchun ishlatildi. Qolgani pirojniy uchun qoldirildi. Pirojniy uchun necha kilogramm krem olib qolindi?

4. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi tortning bo'yi 20 santimetr, eni undan 2 santimetr qisqa. Bu tortni solish uchun patnisning perimetri eng kamida necha santimetr bo'lishi kerak?





- 5.** Jadval asosida masala tuzing. Savolga javob berish uchun ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
42 litr	(15 + 12) litr	?

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
(25 + 17) litr	27 litr	?

Masalalar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?



- 6.** Tenglamalarni yeching.

$$26 - x = 18$$

$$y + 17 = 31$$

$$s - 15 = 25$$



- 7.** Qandolatchilik sexida 9 ta mikser, 12 ta blender, 12 ta qahvamaydalagich bor. Ta'mirlashga 18 ta asbob berildi. Sexda jami nechta asbob qoldi?



- 8.** Tug'ilgan kun tortini bezash uchun 90 ta tillarang shakar koptokcha ishlatildi. Ulardan 45 tasi birinchi qavatga qo'yildi. Ikkinci qavat uchun 28 ta koptokcha ishlatildi. Uchinchi qavatga nechta koptokcha terish kerak?



- 9.** Hisoblang.

$$52 - 18$$

$$61 - 19$$

$$90 - 8$$

$$50 - 4$$

$$36 + 58$$

$$45 + 45$$

$$29 + 3$$

$$45 + 8$$